MIRZO KENJABEK IJODIDA MUMTOZ JANRLAR TAKOMILI

NDU doktoranti f.f.f.d (PhD) Payzullayeva R.M.

Annotatsiya: Mazkur tezisda Mirzo Kenjabekning Hazrat Alisher Navoiy g‘azaliga bog‘lab yozgan “Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq...” muxammasi g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda ishq, hijron, vafo, ma’naviy komillik, insoniy fazilatlar kabi masalalarning talqini o‘rganiladi. Shoirning mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirishdagi o‘ziga xos uslubi hamda poetik mahorati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: muxammas, Navoiy, Mirzo Kenjabek, mumtoz adabiyot, ishq falsafasi, talmeh, tashbeh, badiiy mahorat, vafo, hijron.

Аннотация. В данной тезис анализируется мухаммас Мирзо Кенжабека «Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq...», написанный на газель Алишера Навои. Рассматриваются идейно-художественные особенности произведения, вопросы любви, верности, духовного совершенства и продолжения традиций Навои.

Ключевые слова: мухаммас, Навои, Мирзо Кенжабек, художественное мастерство, любовь, верность, классическая литература.

Abstract. This article analyzes Mirzo Kenjabek’s mukhammas “Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq...” written in connection with a ghazal by Alisher Navoi. The paper examines the ideological and artistic features of the work, including the themes of love, fidelity, spiritual perfection and the continuation of Navoi’s literary traditions.

Keywords: mukhammas, Navoi, Mirzo Kenjabek, artistic mastery, love philosophy, fidelity, classical literature.

Mumtoz adabiyotimizda muxammas janri alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u klassik she’riyatning eng nafis va murakkab shakllaridan biri hisoblanadi.

Muxammas haqidagi nazariy ma’lumotlar Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida keltiriladi: “Musammat besh turlik bo‘lur: musammati murabba’, musammati musaddas va musammati muxammas, musammati muashshar. Musammati muxammas besh misra’ bo‘lur. To‘rt misra’ning oxirinda sab’ qilib beshinchi misra’da asl qofiyaga ruju qilurlar [2;125]. Olimning ta’kidlashicha, muxammasning ikkinchi bandidan boshlab to‘rt misraning oxirida birinchi bandga qaytiladi va beshinchi misra shunga mos o‘zaro qofiyalanadi.

O‘zbek adabiyotida muxammas janri haqida gap ketganda, uning rivojiga Benazir hissa qo‘shgan shoir Alisher Navoiyni alohida tilga olish joiz. Alisher Navoiy muxammmaslar yaratish bilan birgalikda, adabiyotshunoslik masalasida ham ancha ishlarni amalga oshirgani ma’lum. Xususan, uning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida bu janr haqidagi fikrlari bayon etilgan [1; 71].

Muxammaslar yaratilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1) tabi xud ya’ni mustaqil muxammaslar;

2) taxmis ya’ni ergashish yo‘li asosida yaratilgan muxammaslar.

Muxammas yozish an’anasi shoirlardan nafaqat badiiy mahorat, balki salaf ijodini chuqur anglash va talqin qilish salohiyatini ham talab qiladi. Ayniqsa, Alisher Navoiy g‘azallariga muxammas bog‘lash ijodkor oldiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Mirzo Kenjabek zamonaviy o‘zbek she’riyatida mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirayotgan ijodkorlardan biridir. Uning Navoiy g‘azallariga bog‘lab yozgan muxammaslari mumtoz va zamonaviy poetik tafakkurning uzviy bog‘liqligini namoyon etadi. “Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq...” muxammasi ham ana shunday badiiy namunalar sirasiga kiradi.

Muxammasning dastlabki bandidayoq lirik qahramonning iztirobli ruhiy holati tasvirlanadi:

Lablarim kunduz jaziyra dashtidin qaqroqroq,

Nolishim shom qushlarining zikridin dardnokroq,

Ko‘zlarim bemor tunidin subhiga mushtoqroq,

Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq,

Kirpigim shabnam to‘kulgan sabzadan namrokroq… [3;78]

Shoir oshiq qalbidagi dard va iztirobni tabiat manzaralari vositasida ifodalaydi. Jazirama sahro, shom qushlari, subh pirohani kabi obrazlar lirik kechinmalarning poetik ifodasiga xizmat qilgan. Ayniqsa, “subhning pirohani” obrazining qo‘llanishi mumtoz she’riyatga xos nafis tashbeh namunasidir.

Asarda ishq inson qalbini poklovchi va ma’naviy kamolot sari yetaklovchi qudrat sifatida talqin qilinadi. Oshiq visolga erishish yo‘lida har qanday mashaqqatni yengishga tayyor:

Istaram, bo‘lsam xazon, to bexazon ko‘rdum seni... [3;78]

Bu misrada majoziy ma’nodan tashqari tasavvufiy mazmun ham mujassam. Ya’ni inson Haq visoliga yetishish uchun nafsiy istaklardan voz kechishi, ruhiy sinovlardan o‘tishi lozimligi anglashiladi.

Mirzo Kenjabek muxammasda mumtoz poetikaning an’anaviy tasvir vositalaridan samarali foydalanadi. Birinchidan, tashbeh san’ati keng qo‘llanilgan. Ko‘krakning yorilishi tongning yorishiga qiyoslanishi hissiy ta’sirchanlikni oshiradi. Shuningdek, ko‘z yoshlari shabnamga o‘xshatilishi ham she’rning estetik jozibasini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, mubolag‘a san’ati oshiqning ruhiy kechinmalarini yanada ta’sirchan ko‘rsatishga xizmat qilgan. Oshiqning nolasi tun qushlarining nolalaridan ham dardliroq qilib tasvirlanadi.

Uchinchidan, talmeh san’ati orqali mumtoz adabiyot qahramonlari esga olinadi:

“Layli andin qo‘ydi Majnun ko‘nglida raxti g‘amin...”

Mazkur misra Sharq mumtoz adabiyotining eng mashhur ishqiy syujetlaridan biri bo‘lgan Layli va Majnun qissasiga ishora qiladi. Natijada asarning semantik maydoni kengayadi va undagi ishq falsafasi yanada chuqurlashadi.

Muxammasda ishq faqat hissiy kechinma emas, balki insonning ruhiy poklanish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu jihat Navoiy ijodidagi tasavvufiy qarashlar bilan uyg‘unlashadi.

“Bo‘lsa ko‘ngil pok omonatlar uchun taxti amin...”

misrasi qalb pokligi va ma’naviy mas’uliyat g‘oyalarini ifodalaydi. Shoir nazarida insonning eng buyuk boyligi uning pok qalbi va sadoqatidir.

Asarda vafo masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif zamondoshlarining ma’naviy qiyofasi haqida mushohada yuritib, haqiqiy vafo egalarining kamayib borayotganidan taassuf bildiradi. Bu esa asarga ijtimoiy-falsafiy ruh bag‘ishlaydi.

Mirzo Kenjabek muxammasida Navoiy poetikasining bir qator muhim xususiyatlari davom ettirilgan:

– ishqning ilohiy va majoziy talqini;

– komil inson g‘oyasining ilgari surilishi;

– ramziy obrazlardan foydalanish;

– mumtoz poetik san’atlarning qo‘llanishi;

– ma’naviy poklanish va vafo masalalarining yoritilishi.

Biroq shoir Navoiy an’analarini takrorlash bilan cheklanib qolmaydi. U ularga zamonaviy ruh, yangi hissiy bo‘yoqlar va individual talqin olib kiradi. Shu jihatdan muxammas mumtoz va zamonaviy adabiy tafakkur sintezining yorqin namunasi hisoblanadi.

Mirzo Kenjabekning “Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq...” muxammasi Navoiy an’analarining bugungi o‘zbek she’riyatidagi samarali davomidir. Asarda ishq, vafo, hijron, ma’naviy poklanish kabi umuminsoniy g‘oyalar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Shoir mumtoz adabiyot poetikasini chuqur o‘zlashtirgan holda uni zamonaviy badiiy tafakkur bilan boyitgan. Natijada mazkur

muxammas nafaqat Navoiy ijodiga ehtirom namunasi, balki mustaqil badiiy-estetik qiymatga ega asar sifatida ham e’tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy.Muhokamat ul-lug‘atayn. O'n to'rtinchi tom. – Toshkent, 1967.
2. Аҳмад Тарозий. Фунуну-л-балоға. Китобда: Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. –Тошкент: ЎМЭ, 2006. – Б. 125.
3. Mirzo Kenjabek. Hayot sadolari. – Toshkent. “Oltin kitob”
4. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. – Toshkent.